



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



2024- YIL YANVAR-MART

SIRDARYO VILOYATIDA
BAJARILGAN QURILISH ISHLARI




2024- yil 1-aprel holatiga qurilish korxonalari soni, birlikda

Guliston sh.	332
Mirzaobod tumani	90
Sirdaryo tumani	85
Yangiyer sh.	67
Guliston tumani	63
Boyovut tumani	57
Sayxunobod tumani	51
Xovos tumani	45
Oqoltin tumani	43
Sardoba tumani	36
Shirin sh.	34

2024- yilning 1- aprel holatiga Sirdaryo viloyatida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 903 tani tashkil etdi.

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 332 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarining 36,7 % qismi Guliston shahrida joylashgan.




Qurilish korxonalari soni, birlikda



Shuningdek, Guliston shahrida 332 ta (viloyat bo'yicha ularning jami soniga nisbatan 36,7 %), Mirzaobod tumanida – 90 ta (10,0 %) qurilish korxonalari mavjud bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga ega.

2024- yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari


hajmi mlrd. soʻmda va oʻsish surʻati



2024- yilning yanvar-mart oylarida, Sirdaryo viloyatida jami 697,3 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2023- yilga nisbatan 105,5 % ni tashkil etdi.


Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi

oʻsish surʻati oʻtgan yilga nisbatan, % da, mlrd. soʻm



2024- yilning yanvar-mart oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 80,9 % yoki 564,1 mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.



Ma‘lumot uchun: qurilish faoliyati bu – o‘z kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta‘mirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.

2024- yilning yanvar-mart oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish ishlari ulushi


mlrd. soʻmda

	2023- yil	2024- yil	Ulushi, % da
Sirdaryo viloyati	412,1	564,1	100,0
Guliston sh.	122,6	153,0	27,1
Shirin sh.	9,9	23,8	4,2
Yangiyer sh.	24,1	26,3	4,7
Boyovut	12,2	15,3	2,7
Guliston	24,8	28,9	5,1
Mirzaobod	65,1	174,3	30,9
Oqoltin	9,3	9,2	1,6
Sardoba	5,6	27,0	4,8
Sayxunobod	7,0	27,0	4,8
Sirdaryo	109,6	54,2	9,7
Xovos	21,9	25,1	4,4

2024- yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari boʻyicha yuqori hajm, Mirzaobod tumani (174,3 mlrd. soʻm), Guliston shahri (153,0 mlrd. soʻm), Sirdaryo tumani (54,2 mlrd. soʻm) va Guliston tumanida (28,9 mlrd. soʻm) qayd etildi.


Yillar kesimida yangi qurilish ishlari

jamiga nisbatan ulushi, % da, mlrd. soʻm



2024- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

O'sish sur'ati



Qurilish ishlari hajmiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.



394,9

mlrd. so'm


Bino va inshootlar qurish



284,5

mlrd. so'm

Fuqarolik obyektlarini qurish



2,6 %

17,9


mlrd. so'm

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari


2024- yilning yanvar-mart oylarida Sirdaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 56,6 % ulushni tashkil etib, 2023- yilga nisbatan 83,2 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 40,8 % ulushni tashkil etib, 2023- yilga nisbatan 1,9 m. ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 2,6 % ulushni va 2023- yilga nisbatan 47,8 % ni tashkil etdi.



2024- yilning yanvar-mart oylarida bino va inshootlar qurilish ishlarini asosiy ko'rsatkichlari *Korxonalar turlari bo'yicha*



**Yirik qurilish
tashkilotlari**



**Kichik korxonalar
va mikrofirmalar**



Norasmiy sektor



Jamiga nisbatan, % da

Jami bino va inshootlarni qurish - 394,9 mlrd. so'm


Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 9,4 % ni tashkil etib, 2023- yilga nisbatan 10,1 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023- yilga nisbatan 0,1 % punktga ko'payib 68,5 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2023- yilga nisbatan 10,0 % punktga ko'payib, 22,1 % ni tashkil etdi.

Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015- yilning 1- yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq "Qurilish faoliyati bo'yicha o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi" ko'rsatkichi qo'llaniladi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida bino va inshootlar qurilishi hajmi mlrd. soʻmda va oʻsish surʻati



Ma'lumot uchun: Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Guliston tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 83,0 %), Xovos tumani (80,4 %) va Yangiyer shahri (79,0 %) da kuzatildi.



83,0 %

Guliston tumani



80,4 %


Xovos tumani




79,0 %

Yangiyer shahri


2024- yilning yanvar-mart oylarida fuqarolik obyektlarini qurish ishlarini asosiy ko'rsatkichlari *Korxonalar turlari bo'yicha*



**Yirik qurilish
tashkilotlari**



**Kichik korxonalar
va mikrofirmalar**




Jamiga nisbatan, % da

Jami fuqarolik obyektlarini qurish - 284,5 mlrd. so'm

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 24,4 % ni tashkil etdi va 2023- yilga nisbatan 6,0 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 75,6 % (6,0 % punktga kamaydi).

Fuqarolik obyektlari qurilishiga avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, quvur tarmoqlari va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida fuqarolik obyektlarini qurish hajmi mlrd. soʻmda va oʻsish surʻati



Ma'lumot uchun: Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Mirzaobod tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 81,3 %), Guliston shahri (34,6 %) va Sirdaryo tumani (31,3 %)da kuzatildi.



81,3 %

Mirzaobod tumani



34,6 %


Guliston shahri



31,3 %

Sirdaryo tumani

2024- yilning yanvar- mart oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarini asosiy ko'rsatkichlari *Korxonalar turlari bo'yicha*



Jamiga nisbatan, % da


Jami ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari - 17,9 mlrd. so'm

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2,8 % ni tashkil etdi.

Qolgan 97,2 % kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2023- yilga nisbatan 2,8 % punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi mlrd. soʻmda va oʻsish surʻati



Maʼlumot uchun: Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Boyovut tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 7,6 %), Xovos tumani (5,1 %) va Yangiyer shahri (4,7 %) kuzatildi.



7,6 %

Boyovut tumani



5,1 %

Xovos tumani




4,7 %

Yangiyer shahri

2024- yilning yanvar-mart oylarida korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Qurilish ishlari hajmining tarkibi, mlrd. so'mda



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

Jami hajmga nisbatan ulushi, % da



Yirik qurilish tashkilotlari

2023- yil bilan solishtirganda –
90,1 %



Kichik korxonalar va mikrofirmalar


2023- yil bilan solishtirganda –
105,1 %




Norasmiy sektor

2023- yil bilan solishtirganda –
141,3 %

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024- yilning yanvar-mart oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari *jamiga nisbatan ulushi*



2023- y.




2024- y.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024- yilning yanvar-mart oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 106,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2023- yilga nisbatan 90,1 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 2,8 % ga kamayib, 15,3 % ni tashkil etdi.

Xo'jalik usulida bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

Jami yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan - 106,8 mlrd. so'm qurilish ishlari hajmi

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining yillar kesimidagi dinamikasi *oldingi yilga nisbatan, % da, mlrd. so'm*



2020-y.

2021-y.

2022-y.


2023-y.

2024-y.

2024- yilning yanvar-mart oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan ishlar *Hududlar kesimida*



Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Sardoba tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 67,3 %), Shirin shahrida (51,7 %) va Mirzaobod tumanida (23,4 %) qayd etildi.



● mlrd. so'm

Jamiga nisbatan ulushi



Sardoba tumani




Shirin shahri




Mirzaobod tumani

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 2024- yilning yanvar-mart oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari *jamiga nisbatan ulushi*



2023- y.



2024- y.


2024- yilning yanvar-mart oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 72,1 % to'g'ri kelib, 2023- yilga nisbatan 1,1 % punktga kamaydi.

Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilga nisbatan 105,1 % ni tashkil etgan holda 503,0 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

**Jami kichik korxonalar va mikrofirmalar
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari - 503,0 mlrd. so'm
hajmi**

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining yillar kesimidagi dinamikasi

oldingi yilga nisbatan, % da, mlrd. so'm



2020-y.

2021-y.

2022-y.

2023-y.


2024-y.

2024- yilning yanvar-mart oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlari

Hududlar kesimida



Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Guliston shahriga (158,2 mlrd. so'm), Mirzaobod tumaniga (134,3 mlrd. so'm), Sirdaryo tumaniga (45,8) to'g'ri keldi.



Jamiga nisbatan ulushi



Yangiyer shahri




Guliston tumani




Sayxunobod tumani

2024- yilning yanvar-mart oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor jamiga nisbatan ulushi



2023- y.




2024- y.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 12,6 % yoki 87,5 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023- yilga nisbatan 141,3 % ga yetdi.

Shundan, 74,4 mlrd. so‘mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to‘g‘ri kelib, 2023- yilga nisbatan 162,5 %, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 0,3 mlrd. so‘mni va 7,6 %, yakka tartibdagi turar-joylarni ta‘mirlash ishlari 12,8 mlrd. so‘mni va 103,0 % tashkil etdi.

Norasmiy sektor qurilish ishlarining yillar kesimidagi dinamikasi

oldingi yilga nisbatan, % da, mlrd. so‘m



2020-y.

2021-y.

2022-y.


2023-y.

2024-y.

2024- yilning yanvar-mart oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor Hududlar kesimida



Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Guliston shahrida (37,3 mlrd. so'm), Sirdaryo tumanida (9,0 mlrd. so'm) va Mirzaobod tumanida (6,1 mlrd. so'm) qayd etildi.



Jamiga nisbatan ulushi



Boyovut tumani




Oqoltin tumani




Guliston shahri

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi mlrd. so'mda

2023-y.



2024-y.



■ Davlat mulkchiligi

■ Nodavlat mulkchilik

Davlat mulkchilik tashkilotlar tomonidan jami 48,2 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilik tashkilotlar tomonidan esa 649,1 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 6,9 % va 93,1 % ni tashkil etdi.



Ma'lumot uchun: nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Mirzaobod tumanida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 98,3 %), Xovos tumanida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 96,6 %) va Yangiyer shahrida (ushbu hududdagi umumiy qurilish ishlarining 97,0 %) qayd etildi.

Qurilish ishlari

USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Kapital qurilishga pudrat shartnomasi – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

Qurilish tashkilotlari – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlarini o'z ichiga oladi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi
Tel. 67 236-70-00 (2020)